



**SOG'LOM TURMUSH, FAROVON HAYOT, ATROF-MUHITNI  
ASRASH YASHIL IQTISODIYOT MANBAIDIR**

“Najot-ta‘limda, najot-tarbiyada, najot-bilimda”

*Ta‘lim sifatini oshirish- Yangi O‘zbekiston taqaqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘ldir.*

***Sh.M. Mirziyoyev***

***Xalilova Zarifa Ochilovna***

*Qashqadaryo viloyati Yakkabog tumani MMTBga qarashli 9-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi MMIBDO‘*

***Ro‘ziyeva Nazira Ochilovna***

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chорвачилик va biotexnologiyalar*

*unvirsititining Toshkent filiali E-mail:naziraочilovna76*

**Kalit sózlar:** ekologik ta‘lim tarbiya, ekologik madaniyat, ekologik muommalar, ekologiyaning asosiy qonunlari, yashil makon , umum milliy, ekologik, xavfsiz iqtisodiyot.

**Key words:** Key words: ecological education, ecological culture, ecological problems, basic laws of ecology, green space, general national.

**Annotatsiya:** Yuksak ma’naviyatli va ekologik madaniyatli kadrlarni tayyorlash zamon talabi bo‘lib, antropogen omillar ta’sirini 4 ta ekologik qonunni bilgan holatda ularni oldini olish muhumdir. Ekologik muommalar biosferada ko‘payib ketayotganligini inobatga olgan holda ekologik manaviyatli va madaniyatli shaxslarni tarbiyalash maqsadga muvofiqdir. Maqolada tabiat ustidan hukumronlik qilmasdan u bilan hamkorlik qilish muhumligi ko‘rsatilgan. Prezidentimiz Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida 2025 yilni yurtimizda “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e’lon qilgani Yangi O‘zbekistonda ona tabiatni asrab-avaylab, ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilayotgan yuksak e’tiborning amaldagi yana bir ifodasi bo‘ldi.



Aslida mamlakatimizning tabiatni asrash, musaffo havosi, zilol va shifobaxsh suvlarini asrlash yashil makon yaratish har birkishing insonniylik burchidir. Biroq, sanoatning rivojlanishi, energiya resurslariga talabning ortishi, tabiatga munosabatning o‘zgargani iqlim o‘zgarishlari, atrof-muhit ifloslanishi, bir qancha muommlarni kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Bu masalalar yechimini topish uchun “Yashil makon” umummilliy loyihasining hayotga joriy etilgani xalqimizning azaliy qadriyatlaridan biri bo‘lgan bo‘sh yerlarga ko‘chat ekish, bog‘-rog‘lar barpo etish an’analarini qayta tikladi. Ona tabiatga daxldorlik tuyg‘usini kuchaytirdi. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish g‘oyasining ilgari surilgani energiya resurslari iste’molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirishga, iqlim o‘zgarishlari oqibatlarini yumshatib, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga, tabiiy ekotizimlarni asrashga, iqlim o‘zgarishi sharoitida samarali, resurs tejamkor va ekologik xavfsiz iqtisodiyotni ta’minlashga qulay muhit yaratdi. Global miqyosda tobora keskinlashib borayotgan ekologik muammolar insoniyatdan atrof tabiiy muhitga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirishni talab etmoqda. Bu jarayonda ekologik ta’limni uzluksiz rivojlantirib borish muhim o‘rin tutadi. Iqlim o‘zgarishi sharoitida samarali, resurs tejamkor va ekologik xavfsiz iqtisodiyotni ta’minlaydi. Ekologik ta’lim – tizimli va uzluksiz o‘quv jarayoni bo‘lib, uning maqsadi nazariy va amaliy bilimlarni, dunyoqarashni, xulq-atvor normalari va qoidalarini, shu jumladan atrof-muhitga, tabiatdan foydalanishga va umuman ekologiyaga munosabatni shakllantirishdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, aholining barcha qatlamlarining bevosita ishtiroki, ekotizimni saqlash va atrof-muhit barqarorligini qo‘llab-quvvatlash muammolariga yoshlarning kuch va e’tiborini jalg etish zarur. Biroq ta’lim tizimining bugungi holati, ekologiya bo‘yicha o‘quv dasturlari zamonaviy talablarga javob bermaydi. Malaka oshirish, ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish, ular asosida ekologik madaniyatni shakllantirishning aniq belgilangan parametrlarini ishlab chiqish zarur. Umuman olganda, aholining tabiatdan foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish mas’uliyati va ekologik faoliyatga qiziqishini shakllantirish ham faol marketing strategiyasi va aggressiv reklamani talab qiladi. Ijtimoiy rolklarni namoyish qiluvchi



shahar bilbordlari va bilbordlardan foydalanish, mahsulotlar uchun ekologik sumkalardan foydalanish madaniyatini joriy etish, ekologik toza iste'mol tovarlari va xizmatlar uchun trend va moda yaratish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi yoshlar ijtimoiy tarmoqlardagi trendlar ta'siriga juda moyil. Internet resurslaridan ekologik muammolarni yoritishda samarali foydalanish zarur. Bugungi kunga kelib, ta'lim olish tendensiyasi o'zgardi, raqamli texnologiyalar va internet asta-sekin ma'lumot va bilim olishning an'anaviy usullarini almashtirmoqda. Masofaviy ta'lim, onlayn darslar paydo bo'ldi. Internet-resurslar va ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish kerak. Ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri yo'nalishda foydalanish va ekotizimni asrashga sodiq va atrof-muhitga e'tiborli "Yashil avlod"ni shakllantirishga yo'naltirish lozim. Tabiiy resurslardan o'yamasdan foydalanish, muhofaza qilish va tiklash choralarining yetishmasligi, atrof-muhitning kuchli ifloslanishi umidsiz va tuzatib bo'lmaydigan halokatli iqlim o'zgarishiga olib keladi. Shu bois ekologik xavfsizlikni ta'minlash insoniyat uchun ham ijtimoiy, ham siyosiy jihatdan strategik muhim vazifa ekanligini anglab yetish zarur. Shunga ko'ra, hozirgi avlod oldida inson va tabiat o'rtaсидаги уйғунликни саqlash асосиy vazifadir. Ushbu muammolarni hal qilish uchun qadriyatlar tizimini va tabiatga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, tabiat va insonni birgalikda rivojlantirishga asoslangan yangicha tafakkur va mafkurani shakllantirish zarur. Buni sifatli ekologik ta'lim va tarbiyasiz amalga oshirib bo'lmaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### Asosiy adabiyotlar

- 1.Q.X.Muftaydinov, H.M.Qodirov, E.Yu.Yulchiyev Ekologiya Toshkent 2020 yil
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining—O'zbekiston Respublikasining yanada rivojlantirish bo\_yicha Harakatlar strategiyasi tog'risida||gi PF-4947- sonli farmonida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida,—O'zbekiston Respublikasi hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini kompleks o'rganish natijalari bo'yicha yig'ma tahiliy material|| Toshkent2017 yil.



3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Sh.M.Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasining yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni, O‘zbekiston ovozi, 2017 yil, 9 fevral.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga —Murojaatnomalsi 22 dekabr 2017 yil.
4. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plamii, 2017 yil.
- 5.B.S.Musayev – Agrokimyo. T., “Fan” nashriyoti, 2001.
6. T.U.Raximova “Ekologiya” Kasb hunar kollejlari va oily o‘quv yurtlari talalari uchun o‘quv qo‘llanma.2006y.Toshkent.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.
8. D.Ro‘ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Holiqov. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi .Uslubiy qo‘llanma -T.: Nizomiy nomli TDPU, 2013 yil.
9. Sh.Otaboyev, Z.Malikov, Sh.Mamatdaliyev, M.Mirsovurov, —Ekologiya O‘quv qo‘llanma.Toshkent- 2011.
- 10 Ro‘ziyeva Nazira, Ochilovna, Abdiyev Fozil Rashidovich, Po‘latov Sarvar Mustafoyevich, “Seleksiya va urug‘chilik” (darslik). “Zuxra baraka biznes” MChJ. Toshkent-2023
- 11.Po‘latov S.M. “Dorivor o‘simliklarni yetishtirish texnologiyasi (darslik) “Zuxra Baraka biznes” MChJ. Toshkent-2023
12. M.Musaev. Sanoat chiqindilarini tozalash texnologiyasi asoslari. Darslik. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent -2011 yil.
13. I.X. Ayubova, M.N. Musaev, I.A.Jamgaryan. Atrof-muhit sifat analizi va monitoring. Toshkent -2011.

**Qo‘shimcha adabiyotlar.**

1. www.mo-gol.ru saytidan.
2. www.lex.uz sayti O‘zbekiston Respublikasi Prizidentining 30.05.2018 yildagi PQ-3755 son Qarori.



3. Saytlar: [www.referat.ru](http://www.referat.ru) [www.farming.co.uk](http://www.farming.co.uk) [www.agronomiy.org](http://www.agronomiy.org)  
[www.library.breeding](http://www.library.breeding) of animals and crop rejas.,ru [www.megasearch.biz](http://www.megasearch.biz)
4. Pedagogik jurnal. [www.megasearch.biz](http://www.megasearch.biz) 4. Pedagogik jurnal. .